




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1542,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 199,1 mln. AQSh dollariga yoki 14,8 % ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 606,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 136,1 %) va import hajmi 935,8 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 104,3 %) yetdi. Hisobot davrida 329,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-aprelga nisbatan, %da)





**TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)**


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Turkiya	327,9	274,9	53,0	21,3
Qozog'iston	323,7	51,9	271,8	21,0
Rossiya Federatsiyasi	287,4	85,2	202,2	18,6
Xitoy	191,8	38,3	153,5	12,4
Koreya Respublikasi	49,0	2,0	47,0	3,2
Braziliya	42,4	0,0	42,4	2,8
Ukraina	33,7	14,5	19,2	2,2
Afg'oniston	32,8	32,8	0,0	2,1
Germaniya	24,2	5,0	19,2	1,6
Qirg'iz Respublikasi	20,4	13,0	7,4	1,3
Tojikiston	19,9	18,7	1,2	1,3
Italiya	16,4	3,3	13,1	1,1
Qatar	15,8	15,8	0,0	1,0
Singapur	12,3	12,0	0,3	0,8
Ozarbayjon	11,8	2,2	9,5	0,8
Niderlandiya	11,6	7,7	3,8	0,8
Irlandiya	11,3	0,0	11,3	0,7
Litva	9,5	0,2	9,3	0,6
Hindiston	8,4	1,8	6,6	0,5
Polsha	8,3	4,2	4,1	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,9 %ni hamda tashqi savdo aylanmasi 2020- yilning shu davriga nisbatan 113,3 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar-aprel oylarida 53,4 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,1 %ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-aprel, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Afg'oniston, Singapur va Qatar bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Turkiya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-aprel)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qoʻllab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy koʻmak berilmoqda.

2021-yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan 606,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 136,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (72,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,0 %), turli xil tayyor buyumlar (7,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari) (4,5 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,0 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,8 %) guruhlariga toʻgʻri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari)
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Xizmatlar
- Ichimliklar va tamaki
- Hayvon va oʻsimliklar moylari, yogʻlar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	606,4	191,3	415,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	60,4	27,6	32,8	10,0	14,3	7,9
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,6	0,0	0,1	0,3	0,01
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	27,2	15,2	12,0	4,5	8,0	2,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,8	0,01	0,8	0,1	0,01	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	18,2	11,6	6,6	3,0	6,1	1,6
Sanoat tovarlari	439,2	84,5	354,7	72,4	44,2	85,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	10,8	6,5	4,3	1,8	3,4	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	45,7	44,9	0,8	7,5	23,5	0,2
Xizmatlar	3,5	0,4	3,1	0,6	0,2	0,7







MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-aprel)

2021-yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	136,1	138,2	135,1
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	124,9	97,3	163,9
Ichimliklar va tamaki	77,2	76,0	93,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	87,2	152,8	56,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	4 m.	32,5	7,6 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	132,1	125,4	145,9
Sanoat tovarlari	143,6	161,5	139,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	123,7	153,1	95,8
Turli xil tayyor buyumlar	133,3	136,2	62,5
Xizmatlar	142,8	78,6	160,1



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Tojikiston va Qatar hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 517,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,3 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 36,9 mln. dollar qiymat ega 81,8 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 20,2 % o'sgan, naturada – 12,6 % ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 28,1 mln. AQSh dollariga teng 71,3 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 19,7 %ga o'sgan), shuningdek 5,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 7,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 131,2 %ga teng).

2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar

5,3 ming
tonna

7,3 mln.
AQSH dollari



Uzum

1,3 ming
tonna

1,3 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar

1,8 ming
tonna

2,3 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar

71,3 ming tonna
28,1 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 33,4 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,5 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oylari mobaynida import hajmi 935,8 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 104,3 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (25,2 %), sanoat tovarlari (18,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (20,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	935,8	517,3	418,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	143,3	71,5	71,8	15,3	13,8	17,1
Ichimliklar va tamaki	2,4	2,3	0,1	0,3	0,4	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	188,7	179,5	9,2	20,2	34,7	2,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	45,0	44,5	0,5	4,8	8,6	0,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	26,2	24,7	1,5	2,8	4,8	0,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	70,9	20,7	50,2	7,6	4,0	12,0
Sanoat tovarlari	174,9	125,3	49,6	18,7	24,2	11,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	236,0	41,7	194,3	25,2	8,1	46,4
Turli xil tayyor buyumlar	36,6	2,6	34,0	3,9	0,5	8,1
Boshqa tovarlar	2,2	2,2	-	0,2	0,4	-
Xizmatlar	9,6	2,3	7,3	1,0	0,5	1,8

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (34,7 %) va sanoat tovarlari (24,2 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (46,4 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-aprel, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	104,3	106,2	101,9
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	140,2	87,8	3,5 m.
Ichimliklar va tamaki	199,9	2,1 m.	104,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	100,0	109,7	36,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	105,1	104,6	197,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	114,4	124,9	48,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	131,4	142,6	127,2
Sanoat tovarlari	111,6	122,8	90,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	88,3	82,3	89,7
Turli xil tayyor buyumlar	82,5	26,8	98,4
Boshqa tovarlar	50,0	-	-
Xizmatlar	74,9	152,6	64,6





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 789,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,3 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59